

O'qituvchi: O. Husanov

6-SINF "TARIX" FANI DARSLIGI BO'YICHA

FAN: Tarix

SINF: 6-sinf

MAVZU: "Piramidalar va maqbaralar"

TEXNOLOGIK XARITA

MAVZU	6 - sinf "Piramidalar va maqbaralar"
Maqsad, vazifalar	Maqsad: O'quvchilarga Qadimgi Misr piramidalari va maqbaralari to'g'risida bilimlar berish Vazifalar: - o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish. - mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularni bilimni baholash.
O'quv jarayonining mazmuni	Qadimgi Misr piramidalari tarixi haqida ma'lumot berish
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: Og'zaki bayon qilish, «Zinama-zina», "IMAK (Ishontirish maktabi)" metodi. Shakl: suhbat-munozara, amaliy mashg'ulot, kichik guruhlar va jamoada ishlash. Vosita: Tarqatma materiallar: matnlar, Usul: Tayyor yozma materiallar va chizmalar asosida. Nazorat: Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish. Baholash: Rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash.
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: mavzuni qisqa vaqt ichida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga erishadi, o'quvchilar faolligini oshiradi. O'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir mashg'ulot jarayonida o'quvchilarni baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. O'quvchilar tomonidan yozma axborotni mustaqil o'rganish, uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va savollarga javob berishga o'rgatadi. O'quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi. Nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi, o'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi va baholay oladi.
Kelgusidagi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)	O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish. O'z ustida ishlash, mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish. O'quvchi: matn bilan mustaqil ishlashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. O'z fikri va guruh fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.

DARSNING BLOK CHIZMASI

№	Dars bosqichlari	Vaqt
1.	Tashkiliy qism	3 minut
2.	O'atilgan mavzuni takrorlash	7minut
3.	Yangi mavzuni guruhlar bilan ishlash	20 minut
4.	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 minut
5.	Baholash	3 minut
6.	Uyga vazifa	2 minut

DARSNING BORISHI

I. Tashkiliy qism:

O'quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, uyga berilgan vazifalarni tekshirish, O'zbekistonda va dunyoda sodir bo'layotgan yangiliklar bilan (topshiriq berilgan o'quvchilar orqali) tanishtirish.

Darsning jihozlanishi va darsga hozirlik ko'rish

1. Darslik,
2. Dunyo va O'zbekiston xaritasi
3. Tarqatma materiallar: (topshiriqlar yozilgan kartochkalar) (ilova qilinadi)
4. Sinf xonasini guruhlariga ishlashga tayyorlash (sinf o'quvchilarining soniga qarab 4, 5 guruhga bo'lib, stollarni qo'yib chiqish)
5. Guruhlarni baholash uchun har bir o'quvchiga quyidagicha jadval tayyorlanadi:

№	Savollar	To'g'ri va to'liq javob	Qisman to'g'ri javob	Umuman javob yo'q
1.	Qadimgi Misr tarixi haqida nima bilasiz?			
2.	Piramidalar va maqbaralar to'g'risida ma'lumot bering?			

Izoh: to'g'ri va noto'g'ri javoblar soni belgilanadi

Dars turi: Aralash

Dars jarayonida qo'llaniluvchi metodlar: Kichik ma'ruza, guruhlarda ishlash metodlari.

Sinfni guruhlar bilan ishlashga tayyorlash

O'quvchilarni guruhlarda ishlashga tayyorlash uchun dars boshlanishidan avval ularga sud tizimi va uning o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida yozilgan kartochkalar tayyorlanadi.

II. O'rganilgan mavzuni ("Piramidalar va maqbaralar")

Guruhlariga quyidagi topshiriqlar beriladi:

- 1) O'tgan mavzu bo'yicha berilgan savollarga javobni birgalikda maslahatlashib toping
- 2) So'ng fikr almashing
- 3) Taqdimotga tayyorlaning

TOPSHIRIQLAR:

- 1-guruhga Xufu pramidasi qachon qurilgan?
- 2-guruhga Yirik piramidalar o'rtacha necha yilda qurilgan?
- 3-guruhga Piramidalarda ishlatilgan toshlarning og'irligi qancha bo'lgan?
- 4-guruhga Sarkofag nima?

O'quvchilar o'zlashtirilgan ma'lumotlarni daftarlariga yozib bo'lgandan so'ng guruhlar daftarlarini almashtiradilar va o'qib berilgan javoblarning to'g'ri noto'g'riligini joyida

belgilaydilar. O'qituvchi guruhlar javoblarini tinglab, umumlashtiradi va o'tilgan mavzuga yakun yasaydi.

III. Yangi dars mazmuni (Piramidalar va maqbaralar):

O'qituvchi yangi mavzuni slaydlar asosida qisqacha ma'ruza orqali tushuntiradi (slaydlar va ma'ruza ilova qilinadi).

Ma'ruza quyidagi tartibda tushuntiriladi:

- ❖ Piramidalar
- ❖ Maqbaralar
- ❖ Piramidalarning qurilish tarixi

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun

1-USUL. "ZINAMA-ZINA" TEXNOLOGIYASI

Texnologiyaning tasnifi. Ushbu mashg'ulot o'quvchilarni o'tilgan yoki o'tilishi kerak bo'lgan mavzu bo'yicha yakka va kichik jamoa bo'lib fikrlash hamda xotirlash, o'zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to'plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko'rinishda ifodalay olishga o'rgatadi. Bu texnologiya o'quvchilar bilan bir guruh ichida, yakka holda yoki guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o'tkaziladi va taqdimot qilinadi.

Texnologiyaning maqsadi: O'quvchilarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o'z fikri bilan ta'sir eta olishga, uni ma'qullashga, shuningdek mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

Texnologiyaning qo'llanilishi. Ma'ruza (imkoniyat va sharoit bo'lsa) seminar, amaliy mashg'ulotlarda yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o'tkazish hamda nazorat darslarida qo'llanilishi mumkin.

Mashg'ulotda qo'llaniladigan vositalar: A-3, A-4 formatli qog'ozlarda tayyorlangan (mavzuni ajratilgan kichik mavzuchalar soniga mos) chap tomoniga kichik mavzular yozilgan tarqatma materiallar, plamaster yoki rangli qalamlar.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- O'quvchilarni mavzular soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratiladi. Guruhlar soni 4 ta yoki 5 ta bo'lgani ma'qul.

- O'quvchilar mashg'ulotning maqsadi va uning o'tkazilishi tartibi bilan tanishtiriladi. Har bir guruhga qog'ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo'lgan varaqlar tarqatiladi.

- O'qituvchi guruh a'zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini, shu mavzu asosida bilganlarini plamaster yordamida qog'ozdagi bo'sh joyida jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi.

- Guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma (yoki rasm, yoki chizma) ko'rinishini ifoda etadilar. Bunda guruh a'zolari kichik mavzu bo'yicha imkon boricha to'laroq ma'lumot berishlari kerak bo'ladi.

- Tarqatma materiallar to'ldirilgach, guruh a'zolaridan bir kishi taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan material, albatta, auditoriya (sinf) doskasiga mantiqan tagma-tag (zina shaklida) ilinadi.

- O'qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib ularni baholaydi va mashg'ulotni yakunlaydi.

Izoh: o'quv mashg'ulotining bunday tashkil etilishi o'quvchilarni mustaqil fikrlashga, o'tilgan va o'zlashtirilgan mavzularni eslashga, ularni yozma (yoki rasm, chizma ko'rinishda) bayon etishga, fikrlarni umumlashtiishga o'rgatadi.

<i>No</i>	<i>Piramidalar</i>	<i>Qisqacha ma'lumot</i>
1	Xufu	

2	<i>Xafra</i>	
3	<i>Menkaura</i>	
4	<i>Sarkofag</i>	
5	<i>Xeops</i>	

E'tibor bering !!!..... bu yerdagi ketma-ket holatga. Ya'ni tarixiy voqealikning ketma-ket bir-biri bilan bog'liq holatda tarmoqlanishiga

2-USUL: «IMAK» (ISHONTIRISH MAKTABI) TEXNOLOGIYASI

Texnologiyaning maqsadi: tinglovchi (yoki o'quvchi)larning ishontirish va boshqara olish malakasini hamda tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirish, shuningdek, jamoada va turli xil vaziyatlarda o'zini tuta olishga o'rgatish.

Mashg'ulotning o'tkazish tartibi:

O'quv jarayoni boshlanishida o'qituvchi tinglovchi (yoki o'quvchi)larni mashg'ulotni o'tkazish tartib-qoidalari bilan tanishtiradi. Tinglovchi (yoki o'quvchi)dan biri mashg'ulot shartlariga binoan xonadan chiqadi. Qolgan ishtirokchilar esa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ziddiyatni nazarda tutuvchi muammoli holatni o'ylab chiqadilar, muhokama qiladilar va tayyorlaydilar. Boshqacha aytganda, muammoli holatni rollarga bo'lingan holda ijro etishga tayyorgarlik ko'radilar. Masalan, tinglovchilar muhim o'quv holda ijro etishga tayyorgarlik ko'rib kelganlar, ularning hammasi mashg'ulotda ishtirok etishga tayyor va qiziqish katta, lekin ta'lim muassasasi rahbariyati mashg'ulot o'rniga barcha tinglovchi (yoki o'quvchi)larni hovli, ko'chalarni, gulzor va bog'larni tozalash, tartibga keltirish yoki ta'lim muassasasida o'tkazilayotgan tadbirda zalni to'ldirish uchun borishga ko'rsatma berishi mumkin o'quvchilar o'zlarining shaxsiy tajribalaridan, o'quvchilik faoliyatidan kelib chiqib, sahnalashtirish uchun o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida ziddiyatga olib keluvchi turli holatlar, vaziyatlarni o'ylab topishlari mumkin. O'quvchilar tanlagan muammoni tayyorlagan vaqtda tashqariga chiqqan ko'ngilli qatnashchiga o'qituvchi, dekan muovini rolini o'ynashi kerakligi tushuntiriladi, uni alohida bo'ladigan muammo yoki vaziyat bilan tanishtiriladi. Tayyorgarlik uchun aniq vaqt ajratiladi. Bir ozdan so'ng, tashqariga chiqib ketgan o'quvchi auditoriyaga taklif etiladi. So'ngra o'quvchi o'ylab topgan va ular tomonidan sahnalashtirilgan ziddiyatni keltirib chiqaruvchi vaziyat ijro etiladi. O'quvchilar tomonidan tayyorlangan vaziyatni ijro etish vaqtida, ular xar xil xarakterdagi o'quvchilar rovida bo'lib, ziddiyatni keltirib chiqarish uchun ularning qiliqlari, odatlari, so'zlari, harakatlarini ishlatadilar.

Guruh murabbiysi rolidagi tinglovchi Ushbu ijro etilayotgan sahna ko'rinishida o'zining tashkilotchilik qobiliyati, ishontira olish malakasi, holatni nazorat qilib turishi, turli vaziyatlar va sharoitlarda o'zini tuta bilishi, boshqara olishi, mazkur holatdan tarbiyaviy usullardan foydalangan holda vaziyatning, ziddiyatning ijobiy yechimiga erisha olishini namoyish eta olishi kerak. Ya'ni o'quvchilarni o'z fikriga ishontira olishi zarur, aks holda ular o'qituvchiga o'z ta'sirlarini ko'rsatishlari mumkin.

Mashg'ulotning keyingi bosqichida o'qituvchi guruh bilan birgalikda murabbiyning o'zini tutishi, o'z fikriga qay darajada ishontira olishi, uning madaniyati va harakatlaridagi ijobiy va salbiy tomonlarini muhokama qiladi, berilgan muammoli holatdan chiqishning qulay usullarini aniqlaydi, shuningdek, uchrab turishi mumkin bo'lgan muammoli holatlar va ularni yechish usullarini bashorat qiladi.

Mashg'ulotning oxirida o'quvchilar «Murabbiyning tashkilotchilik qobiliyati» mavzusida mustaqil o'qish uchun tarqatma materiallar oladilar.

Izoh: Ushbu mashg'ulotning 1-yarimida videokamera yordamida mashg'uloti to'liq, Ya'ni tinglovchi (yoki o'quvchi)larning sahnalashtirilgan muammolarini ko'rsatishlari va uni jamoa bilan yechishda murabbiyning hatti-harakatlari, qo'llagan usullarini hammasi videokassetaga tushiriladi. Mashg'ulotning 2-yarimida videokasseta televizor orqali namoyish etiladi. Videolavhani tomosha qilish mobaynida uning mazmuni jamoaviy muhokama etilishi mumkin.

Bunday tahlil har bir qatnashchining o'zini ko'ra bilishi, kerakli xulosa chiqara olishiga katta yordam beradi.

V. Dars yakunlanadi va baholanadi

O'quvchilar tomonidan bajarilgan topshiriqlarni o'qituvchi baholash uchun o'quvchilarning uyga berilgan vazifalarni to'g'ri bajarganligi, darsdagi faol ishtiroki va dars jarayonida jadvalning to'g'ri to'ldirilganligi va kartochkalar bilan to'g'ri ishlaganligi e'tiborga olinib baholanadi.

VI. Uyga vazifa

Yangi mavzuni darslik bo'yicha o'qib, mavzu oxiridagi savollarga javob tayyorlash.

MA'RUZA

Qadimgi va O'rta podshohliklar davrida misrliklar barpo etgan ulkan piramidalar firavnlarni dafn etiladigan joy – maqbaralar bo'lgan.

Eng mashhur piramidalar Memfis shahri yaqinida uch firavn – Xufu, Xafra va Menkaura uchun bunyod etilgan. Bu piramidalar jahonning yetti mo'jizasidan biri bo'lib, ular hozirga qadar saqlanib qolgan birdan-bir inshootlardir. Eng katta piramida Xufu uchun (yunonlar uni Xeops deb atashgan) miloddan avvalgi 2600-yil atrofida qurilgan. Uning balandligi 147 m bo'lgan. Piramida har biri ikki tonnadan og'irroq bo'lgan 2,5 million dona tosh bo'laklaridan tashkil topgan. Toshlar shunchalik tekis qilib kesilgan va taroshlanganki, ularning orasidagi yoriq 0,5 millimetrdan oshmaydi. Piramida yonida dahliz bilan tutashtirilgan bir qancha xonalar mavjud. Ulardan birida firavning mumiylangan jasadi solingan *tosh tobut- sarkofag* joylashgan. Misrliklar, inson vafot etganidan so'ng o'zga bir olamga yo'l oladi, bu hayotda foydalangan narsalarning hammasi narigi dunyoda ham kerak bo'ladi, deb hisoblashgan. Dahmalar ichi esa munojotlar va qarg'ishlardan iborat bitiklar bilan qoplangan, ular firavnni himoya qilishi va o'zga hayotga o'tayotganida unga yordam berishi mo'ljallangan. Yirik piramidalarni o'rtacha 20 yil davomida qurishgan Bu o'ta og'ir mehnat bo'lgan. Piramidalarni *sfinks* tanasi sherniki va boshi odamniki bo'lgan ulkan haykal qo'riqlaydi. «Sahro shohi» - sfinks haykali toshdan ishlangan bo'lib, uning balandligi 20 metrga teng. Yangi podshohlik davriga kelib ehrom qurmay qo'yishdi. Firavnlarni tog'larga o'yilgan tosh maqbaralarga dafn etadigan bo'lishdi. Ularga kiraverish yo'llarini bekitib tashlashgan. Eng mashhur maqbara firavn *Tutanxamonga* tegishli bo'lgan. Maqbara ichidagi tasavvurga sig'maydigan boyliklar bizga qadar yetib kelgan.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TESTLAR

1. Eng mashhur piramidalar uch firavn –*Xufu, Xafra va Menkaura* piramidalari qayerda bunyod etilgan?
A) Giza shahri atroflarida
B) Memfis shahrida
C) Abidos shahrida
D) Geleopolda
2. Eng katta piramida Xufu (yunonlar uni Xeops deb atashgan) piramidasi qachon qurilgan?
A) mil.avv.2400-yilda
B) mil.avv.2600-yilda
C) mil.avv.2700-yilda
D) mil.avv.2800-yilda
3. Eng katta piramida Xufu (yunonlar uni Xeops deb atashgan) piramidasining balandligi qancha?
A) 160-metr
B) 155-metr

- C) 150-metr
- D) 147-metr

4. Eng katta piramida Xufu (yunonlar uni Xeops deb atashgan)piramidasi uchun og'irligi qanchadan keladigan, necha dona tosh bloklaridan tashkil topganini va ulangan toshlar o'rtasidagi yoriqlar o'lchovi qanchaligini belgilang?

A besh tonnadan og'irroq ,4.5 million dona tosh bloklardan tashkil topgan,0.3mm.dan ham oshmaydi.

B) uch tonnadan og'irroq ,1.5 million dona tosh bloklardan tashkil topgan,0.4 mm.dan ham oshmaydi.

C) ikki tonnadan og'irroq ,2.5 million dona tosh bloklardan tashkil topgan,0.5mm.dan ham oshmaydi.

D) to'rt tonnadan og'irroq ,3.5 million dona tosh bloklardan tashkil topgan,0.6mm.dan ham oshmaydi.

5. Qadimgi Misrda Piramida ichida dahliz bilan tutashtirilgan bir qancha xonalar mavjud.Ulardan birida fir'avning mumiyolangan jasadi solingan toshtobut-.....joylashgan edi.

A sarkofag

B) ossuariy

C) qabrchalar

D)kenatof

6. Qadimgi misrda dahmalar ichida fir'avnni himoya qilishi va o'zga hayotga o'tayotganida unga yordam berishi mo'ljallangan narsalar nima edi?

A duolar va nasihatnomalardan iborat bitiklar

B) munajatlar va qarg'ishlardan iborat bitiklar

C) qurol aslaha va butun boyliklarining qanchaligi

D)duolar va qarg'ishlardan iborat bitiklar

7.Qadimgi Misrda yirik piramidalarni qancha vaqtda qurishgan?

A o'rtacha kamida 30yil davomida qurishgan

B) o'rtacha kamida 25yil davomida qurishgan

C) o'rtacha kamida 20yil davomida qurishgan

D) o'rtacha kamida 15yil davomida qurishgan

8. Qadimgi Misrda tanasi arslon va boshi odamnikisimon bo'lgan ulkan haykallar nima deyilgan?

A sirenalar

B) sikloplar

C) kentavrlar

D)sfinks

9. Qadimgi Misrda eng mashhur maqbara kimga tegishli?

A Ramzes II ga

B) Amenxatepga

C) Tutanxamonga

D)Tutmosga

O'qituvchi: O. Husanov

6-SINF "TARIX" FANI DARSLIGI BO'YICHA

FAN: Tarix

SINF: 6-sinf

MAVZU: "Qadimgi tarix – sivilizatsiyaning boshlanishi"

TEXNOLOGIK XARITA

MAVZU	6 - sinf "Qadimgi tarix – sivilizatsiyaning boshlanishi"
Maqsad, vazifalar	Maqsad: O'quvchilarga "Qadimgi tarix – sivilizatsiyaning boshlanishi" to'g'risida bilimlar berish Vazifalar: - o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish. - mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularni bilimni baholash.
O'quv jarayonining mazmuni	"Qadimgi tarix – sivilizatsiyaning boshlanishi"
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: Og'zaki bayon qilish, «Zinama-zina» metodi Shakl: suhbat-munozara, amaliy mashg'ulot, kichik guruhlar va jamoada ishlash. Vosita: Tarqatma materiallar: matnlar, Usul: Tayyor yozma materiallar va chizmalar asosida. Nazorat: Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish. Baholash: Rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash.
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: mavzuni qisqa vaqt ichida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga erishadi, o'quvchilar faolligini oshiradi. O'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir mashg'ulot jarayonida o'quvchilarni baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. O'quvchilar tomonidan yozma axborotni mustaqil o'rganish, uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va savollarga javob berishga o'rgatadi. O'quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi. Nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi, o'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi va baholay oladi.
Kelgusidagi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)	O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish. O'z ustida ishlash, mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish. O'quvchi: matn bilan mustaqil ishlashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. O'z fikri va guruh fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.

DARSNING BLOK CHIZMASI

№	Dars bosqichlari	Vahti
1.	Tashkiliy qism	3 minut
2.	O‘tilgan mavzuni takrorlash	7minut
3.	Yangi mavzuni guruhlar bilan ishlash	20 minut
4.	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 minut
5.	Baholash	3 minut
6.	Uyga vazifa	2 minut

DARSNING BORISHI

I. Tashkiliy qism:

O‘quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, uyga berilgan vazifalarni tekshirish, O‘zbekistonda va dunyoda sodir bo‘layotgan yangiliklar bilan (topshiriq berilgan o‘quvchilar orqali)tanishtirish.

Darsning jihozlanishi va darsga hozirlik ko‘rish

- 1.Darslik,
- 2.Dunyo va O‘zbekiston xaritasi
- 3.Tarqatma materiallar: (topshiriqlar yozilgan kartochkalar) (ilova qilinadi)
4. Sinf xonasini guruhlariga ishlashga tayyorlash(sinf o‘quvchilarining soniga qarab 4, 5 guruhga bo‘lib, stollarni qo‘yib chiqish)
5. Guruhlarni baholash uchun har bir o‘quvchiga quyidagicha jadval tayyorlanadi:

№	Savollar	<i>To‘g‘ri va to‘liq javob</i>	<i>Qisman to‘g‘ri javob</i>	<i>Umuman javob yo‘q</i>
1.	Gerodot, Strabon, Arrianlar haqida nima bilasiz?			
2.	Behustun yozuvlarida nimalar o‘z aksini topgan?			

Izoh: to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar soni belgilanadi

Dars turi: Aralash

Dars jarayonida qo‘llaniluvchi metodlar: Kichik ma’ruza, guruhlarda ishlash metodlari.

Sinfni guruhlar bilan ishlashga tayyorlash

O‘quvchilarni guruhlarda ishlashga tayyorlash uchun dars boshlanishidan avval ularga sud tizimi va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida yozilgan kartochkalar tayyorlanadi.

II. Yangi dars mazmuni (“Qadimgi tarix – sivilizatsiyaning boshlanishi”):

O‘qituvchi yangi mavzuni slaydlar asosida qisqacha ma’ruza orqali tushuntiradi (slaydlar va ma’ruza ilova qilinadi).

Ma’ruza quyidagi tartibda tushuntiriladi:

- ❖ Behustun yozuvlari
- ❖ “Avesto”
- ❖ Geradotning “Tarix” asari

III. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun

1-USUL. “ZINAMA-ZINA” TEXNOLOGIYASI

Texnologiyaning tasnifi. Ushbu mashg‘ulot o‘quvchilarni o‘tilgan yoki o‘tilishi kerak bo‘lgan mavzu bo‘yicha yakka va kichik jamoa bo‘lib fikrlash hamda xotirlash, o‘zlashtirilgan bilimlarni yodga tushirib, to‘plangan fikrlarni umumlashtira olish va ularni yozma, rasm, chizma ko‘rinishda ifodalay olishga o‘rgatadi. Bu texnologiya o‘quvchilar bilan bir guruh ichida, yakka holda yoki guruhlarga ajratilgan holda yozma ravishda o‘tkaziladi va taqdimot qilinadi.

Texnologiyaning maqsadi: O‘quvchilarni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo‘lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab ulardan nazariy va amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o‘z fikri bilan ta’sir eta olishga, uni ma’qullashga, shuningdek mavzuning tayanch tushunchalariga izoh berishda egallagan bilimlarini qo‘llay olishga o‘rgatish.

Texnologiyaning qo‘llanilishi. Ma’ruza (imkoniyat va sharoit bo‘lsa) seminar, amaliy mashg‘ulotlarda yakka tartibda yoki kichik guruhlarda o‘tkazish hamda nazorat darslarida qo‘llanilishi mumkin.

Mashg‘ulotda qo‘llaniladigan vositalar: A-3, A-4 formatli qog‘ozlarda tayyorlangan (mavzuni ajratilgan kichik mavzuchalar soniga mos) chap tomoniga kichik mavzular yozilgan tarqatma materiallar, plamaster yoki rangli qalamlar.

Mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi:

- O‘quvchilarni mavzular soniga qarab 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratiladi. Guruhlar soni 4 ta yoki 5 ta bo‘lgani ma’qul.

- O‘quvchilar mashg‘ulotning maqsadi va uning o‘tkazilishi tartibi bilan tanishtiriladi. Har bir guruhga qog‘ozning chap qismida kichik mavzu yozuvi bo‘lgan varaqlar tarqatiladi.

- O‘qituvchi guruh a’zolarini tarqatma materialda yozilgan kichik mavzular bilan tanishishlarini, shu mavzu asosida bilganlarini plamaster yordamida qog‘ozdagi bo‘sh joyida jamoa bilan birgalikda fikrlashib yozib chiqish vazifasini beradi va vaqt belgilaydi.

- Guruh a’zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan kichik mavzuni yozma (yoki rasm, yoki chizma) ko‘rinishini ifoda etadilar. Bunda guruh a’zolari kichik mavzu bo‘yicha imkon boricha to‘laroq ma’lumot berishlari kerak bo‘ladi.

- Tarqatma materiallar to‘ldirilgach, guruh a’zolaridan bir kishi taqdimot qiladi. Taqdimot vaqtida guruhlar tomonidan tayyorlangan material, albatta, auditoriya (sinf) doskasiga mantiqan tagma-tag (zina shaklida) ilinadi.

- O‘qituvchi guruhlar tomonidan tayyorlangan materiallarga izoh berib ularni baholaydi va mashg‘ulotni yakunlaydi.

Izoh: o‘quv mashg‘ulotining bunday tashkil etilishi o‘quvchilarni mustaqil fikrlashga, o‘tilgan va o‘zlashtirilgan mavzularni eslashga, ularni yozma (yoki rasm, chizma ko‘rinishda) bayon etishga, fikrlarni umumlashtirishga o‘rgatadi.

<i>№</i>	<i>Manbalar</i>	<i>Qisqacha ma’lumot</i>
1	<i>Avesto</i>	
2	<i>Behustun yozuvlari</i>	
3	<i>Geradotning “Tarix” asari</i>	
4	<i>Arrianning”Aleksandrning harbiy yurishlari”</i>	
5	<i>Strabonning “Geografiya” asari</i>	

E’tibor bering !!!..... bu yerdagi ketma-ket holatga. Ya’ni tarixiy voqealikning ketma-ket bir-biri bilan bog‘liq holatda tarmoqlanishiga

MA`RUZA

Insoniyatning qadimgi tarixini turli olimlar o'rganadilar. *Arxeologlar* qadim zamonlarda odamlar yashagan *manzilgohlarda* qazishma ishlarini amalga oshiradilar. *Antropologlar* qadimgi odamlarning qoldiqlari (skelet va boshchanoq)ni sinchiklab tekshirib, ularning tashqi ko'rinishini tiklaydilar, ming yillar avvalgi kishilarning tashqi qiyofasida ro'y bergan o'zgarishlarni o'rganadilar. *Etnograflar* qadimgi odamlarning ko'pgina udumlari, xojalik va madaniy an'analarini saqlab qolgan hozirda mavjud qabilalar va xalqlarni o'rganadilar. *Lingvistlar*, ya'ni tilshunoslar u yoki bu zamonaviy tilning qanday shakllanganini bilish maqsadida qadimgi tillarni o'rganadilar. Biz olkamizning eng qadimgi tarixini qanday o'rganamiz? Axir, o'sha uzoq zamonlarda yozuv bo'lmaganku?! O'lkamiz eng qadimgi tarixining keng o'rganilgan manbalari qadimshunoslar tomonidan topilgan *moddiy manbalardir*. Mehnat qurollari, sopol idishlar, qurol-aslahalar, zeb-ziynat buyumlari, xullas, qadimda inson qo'li bilan yaratilgan hamma narsalar shular lumlasiga kiradi. Yozma manbalar topilishi bilan olimlarga qadimgi mingyilliklar tarixini tiklash osonlashdi. O'rta Osiyo tarixi bo'yicha eng qadimgi yozma manba zardushtiylarning muqaddas kitobi *Avestodir*. Unda yurtimizning qadimgi tarixiy viloyatlari - *Baqtriya*, *So'g'diyona*, *Xorazm* aholisi madaniyati to'g'risida hikoya qilinadi. Qadimgi davr tarixiga doir yana bir yozma manba *Behistun* qoyalaridagi yozuvlardir. Behistun qoyalari Erondagi *Kirmonshoh* shahri yaqinida joylashgan. Fors shohi *Doro I* buyrug'i bilan qoyaga o'yib yozilgan - qadimgi *fors*, *elam* va *bobil* tillaridagi yozuvlarda, *Doro I* zabt etgan mamlakat va xalqlar, shu jumladan, *Xorazm*, *So'g'diyona*, *Baqtriya* davlatlari sanab o'tiladi. Miloddan avvalgi V asrda qadimgi yunon talixchisi *Gerodot* turli mamlakatlarga sayohat qilib, to'qqiz kitobdan iborat «Tarix» asarini yozdi. Unda o'lkamizning qadimgi aholisi to'g'risida ma'lumotlar ham beriladi. Miloddan avvalgi I asr oxirlarida qadimgi yunon tarixchisi va geografi *Strabon* «Geografiya» nomli asarida ko'plab mamlakatlar xalqlari madaniyati va tarixiy voqealari haqida ma'lumotlar keltiradi. Miloddan avvalgi II asr oxiri - I asr boshlarida qadimgi Xitoy tarixchisi *Sim Syan* «Tarixiy yilnomalar» nomli asar yozgan. U yurtimizning qadimgi aholisi to'g'risida ham ma'lumotlar bergan. Milodiy I asrda qadimgi Rim tarixchisi *Kvint Kursiy Ruf* «Makedoniyalik Aleksandr tarixi» nomli asar yozgan. Makedoniyalik Aleksandrning O'rta Osiyoga harbiy yurishlari haqidagi ma'lumotlarni milodiy II asrda yunon tarixchisi *Arrian* ham ancha toldiradi. U «Aleksandrning harbiy yurishlari» deb nomlangan asar yozgan. Ushbu manbalar, shuningdek, keyinchalik yaratilgan ilmiy ishlar tufayli olimlar yurtimizning qadimiy tarixini tiklashga muvaffaq bo'ldilar.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TESTLAR.

1. Qadimgi bitiklarni o'rganish bilan qaysi fan shug'ullanadi?

- A) Arxeologiya
- B) Antropologiya
- C) Epigrafika
- D) Numizmatika

2. Tangalarni tadqiq etish bilan qaysi fan shug'ullanadi?

- A) Arxeologiya
- B) Antropologiya
- C) Epigrafika
- D) Numizmatika

3. Eng qadimgi shaharlar va davlatlar tashkil topishi davrini olimlar nima deb ataydilar.

- A) Uyg'onish davri
- B) Ellinizm
- C) Sivilizatsiya

D) Demokratiya

4. Dastlabki sivilizatsiyalar tarixi boshlangan hududlarni aniqlang.

- A) Qadimgi Sharq, Krit oroli va Yunonistonda
- B) O'rta Osiyo va O'zbekiston hududida
- C) Qadimgi Sharq, Krit oroli va Hindiston
- D) O'rta Osiyo va Yunoniston

5. Qadimgi sivilizatsiyalar jahonning ko'pgina o'lkalarida, jumladan.....hududida ham vujudga kelgan.

- A) Qadimgi Sharq, Krit oroli va Yunonistonda
- B) O'rta Osiyo va O'zbekiston hududida
- C) Qadimgi Sharq, Krit oroli va Hindiston
- D) O'rta Osiyo va Yunoniston

6. Yer yuzida odam paydo bo'lganidan to milodiy 476-yilda G'arbiy Rim imperiyasi qulaganiga qadar kechgan voqealar qaysi tarixni tashkil etadi.

- A) Ibtidoiy jamoa tarixi
- B) Qadimgi dunyo tarixi
- C) Qadimgi dunyoni o'rganish tarixi
- D) Ilk o'rta asrlar tarixi

7. Qadimgi dunyo tarixi qanday o'rganiladi?

- A) Ma'naviy va yozma manbalar asosida
- B) Tosh qurollar turiga qarab
- C) Arxeologik va yozma manbalar asosida
- D) Arxeologik va geografik manbalar asosida

8. Ma'lumki qadimgi dunyo tarixi Qadimgi Sharq, Yunoniston va Rim saroy ayonlari va Podshohlarining turli yilnomalari (voqealar yilma-yil qayd etib borilishi), qonunlar majmui biogeografiyalari (tarjimai hol) aks ettirilgan. Ularda.....haqida hikoya qiladi.

- 1) yurishlar; 2) janglar; 3) marosimlar; 4) ibodatxonalar qurilishi; 5) saroy va qal'alar qurilishi; 6) hunarmandchilik va dehqonchilik; 7) shartnomalar 8) qadimiy fanlar va san'atlar
- A) 1;2;4;5;6;8;
 - B) 1;2;3;4;5;8
 - C) 1;2;3;4;5;6;;
 - D) 1;2;4;5;6;7;

9. Olimlar o'qigan qadimgi matnlarning xalqlarga taalluqli tamoni ajrating.

“Marhumlar kitobi”

“Bibliya”

“Rigveda”

“Avesto”

O'rta Osiyo

Misrliklar

Yahudiylar

Hindlar

- A) 1-b;2-a;3-c;4-d;
- B) 1-a; 2-b;3-c;4-d;
- C) 1-b;2-c;3-d;4-a;
- D) 1-d;2-c;3-b;4-a;

10.Qadim o'tgan zamonlarda odamlar yashagan manzilgohlarda qazishma ishlarni amalgam oshiruvchilar.....deyiladi

- A Arxeologlar
- B) Antropologlar
- C) Etnograflar
- D) Lingvistlar

11.Qadimda odamlarning qoldiqlari(skelet va boshchanoq)ni sinchiklab tekshirib ko'rgan va ularning tashqi ko'rinishini qaytadan yaratishga,ming yillar davomida kishilarning tashqi qiyofasida roy bergan o'zgarishlarni nazardan o'tkazishga harakat qiluvchilar.....deyiladi.

- A Arxeologlar
- B) Antropologlar
- C) Etnograflar
- D) Lingvistlar

12.Hozir ham barhayot qabilalar va xalqlarni,qadimgi odamlarning saqlanib qolgan ko'pgina udumlari,xo'jalik va madaniyat an'analarinio'rganadilar.

- A Arxeologlar
- B) Antropologlar
- C) Etnograflar
- D) Lingvistlar

13.Hozirgi zamon tili qay yo'sinda shakllanganligini tushunib yetish maqsadida qadimgi tillarni tadqiq etuvchilar.....deyiladi

- A Arxeologlar
- B) Antropologlar
- C) Etnograflar
- D) Lingvistlar

14.O'lkamiz eng qadimgi tarixining keng tarqalgan manbayi qadimshunoslar tamonidan topilgan.....

- A ma'naviy manbalardir
- B)moddiy manbalardir
- C) yozma manbalardir
- D)qolyozma asarlardir

15.O'zbekiston tarixi boyicha eng qadimgi manba bu.....

- A Geradotning "Tarix"asaridir
- B) Zardushtiylarning Avestosi
- C) Behustun qoyalari
- D)Strabonning "Geografiya"asaridir

16.Qadimgi davr tarixiga oid yana bir manba (Avestodan so'ng)Behustun qoyalari qayerda joylashgan?

- A Eronning Kirmonshoh shahri yaqinida
- B) Geradotning "Tarix"asari
- C) Sim Szyangning "Tarixiy yilnoma"si
- D) Strabonning "Geografiya"

O'qituvchi: O. Husanov

6-SINF "TARIX" FANI DARSLIGI BO'YICHA

FAN: Tarix

SINF: 6-sinf

MAVZU: "Eng qadimgi odamlar rivojining bosqichlari"

TEXNOLOGIK XARITA

MAVZU	6 - sinf "Eng qadimgi odamlar rivojining bosqichlari"
Maqsad, vazifalar	Maqsad: O'quvchilarga "Eng qadimgi odamlar rivojining bosqichlari" to'g'risida bilimlar berish Vazifalar: - o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish. - mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularni bilimni baholash.
O'quv jarayonining mazmuni	"Eng qadimgi odamlar rivojining bosqichlari"
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: Og'zaki bayon qilish, «3X4» TEXNOLOGIYASI Shakl: suhbat-munozara, amaliy mashg'ulot, kichik guruhlar va jamoada ishlash. Vosita: Tarqatma materiallar: matnlar, Usul: Tayyor yozma materiallar va chizmalar asosida. Nazorat: Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish. Baholash: Rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash.
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: mavzuni qisqa vaqt ichida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga erishadi, o'quvchilar faolligini oshiradi. O'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir mashg'ulot jarayonida o'quvchilarni baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. O'quvchilar tomonidan yozma axborotni mustaqil o'rganish, uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va savollarga javob berishga o'rgatadi. O'quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi. Nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi, o'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi va baholay oladi.
Kelgusidagi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)	O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish. O'z ustida ishlash, mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish. O'quvchi: matn bilan mustaqil ishlashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. O'z fikri va guruh fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.

DARSNING BLOK CHIZMASI

№	Dars bosqichlari	Vahti
1.	Tashkiliy qism	3 minut
2.	O‘tilgan mavzuni takrorlash	7minut
3.	Yangi mavzuni guruhlar bilan ishlash	20 minut
4.	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 minut
5.	Baholash	3 minut
6.	Uyga vazifa	2 minut

DARSNING BORISHI

I. Tashkiliy qism:

O‘quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, uyga berilgan vazifalarni tekshirish, O‘zbekistonda va dunyoda sodir bo‘layotgan yangiliklar bilan (topshiriq berilgan o‘quvchilar orqali)tanishtirish.

Darsning jihozlanishi va darsga hozirlik ko‘rish

- 1.Darslik,
- 2.Dunyo va O‘zbekiston xaritasi
- 3.Tarqatma materiallar: (topshiriqlar yozilgan kartochkalar) (ilova qilinadi)
4. Sinf xonasini guruhlariga ishlashga tayyorlash(sinf o‘quvchilarining soniga qarab 4, 5 guruhga bo‘lib, stollarni qo‘yib chiqish)
5. Guruhlarni baholash uchun har bir o‘quvchiga quyidagicha jadval tayyorlanadi:

№	Savollar	<i>To‘g‘ri va to‘liq javob</i>	<i>Qisman to‘g‘ri javob</i>	<i>Umuman javob yo‘q</i>
1.	Avstrolopitek,Pitekantrop odamlari haqida ma‘lumot bering?			
2.	Sinantrop, Neandertal, Kramonyon odamlari qayerlardan topilgan?			

Izoh: to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar soni belgilanadi

Dars turi: Aralash

Dars jarayonida qo‘llaniluvchi metodlar: Kichik ma‘ruza, guruhlarda ishlash metodlari.

Sinfni guruhlar bilan ishlashga tayyorlash

O‘quvchilarni guruhlarda ishlashga tayyorlash uchun dars boshlanishidan avval ularga sud tizimi va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida yozilgan kartochkalar tayyorlanadi.

II. Yangi dars mazmuni (“Qadimgi tarix – sivilizatsiyaning boshlanishi”):

O‘qituvchi yangi mavzuni slaydlar asosida qisqacha ma‘ruza orqali tushuntiradi (slaydlar va ma‘ruza ilova qilinadi).

Ma‘ruza quyidagi tartibda tushuntiriladi:

- ❖ Janubiy Afrikadan topilgan odam qoldiqlari
- ❖ Xitoy odami
- ❖ Germaniya va fransiyadan topilgan odamlar to‘g‘risida

III. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun

2-USUL: «3X4» TEXNOLOGIYASI

Texnologiyaning tavsifi. Ushbu mashg'ulot tinglovchi (yoki o'quvchi)larni aniq bir muammoni (yoki biror mavzuni) yakka holda (yoki kichik jamoa bo'lib) fikrlab hal etish, yechimini topish, ko'p fikrlardan keragini tanlash, tanlab olingan fikrlarni umumlashtirish va ular asosida qo'yilgan muammo (yoki mavzu) yuzasidan aniq bir tushuncha hosil qilishga, shuningdek, o'z fikrlarini ma'qullay olishga o'rgatadi. Bu texnologiya tinglovchi (yoki o'quvchilar) bilan avval yakka holda, so'ngra ularni kichik guruhlarga ajratilgan holda ravishda o'tkaziladi.

Texnologiyaning maqsadi: tinglovchi (yoki o'quvchi)larni erkin, mustaqil va mantiqiy fikrlashga, jamoa bo'lib ishlashga, izlanishga, fikrlarni jamlab, ulardan nazariy va Amaliy tushuncha hosil qilishga, jamoaga o'z fikrini o'tkazishga, uni ma'qullashga, qo'yilgan muammoni yechishda va mavzuga umumiy tushuncha berishda o'tilgan mavzulardan egallagan bilimlarini qo'llay olishga o'rgatish.

Texnologiyaning qo'llanilishi: seminar, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlarida yakka tartibda (yoki kichik guruhlarga ajratilgan holda) o'tkazish hamda guruh a'zolarini bir necha marotaba joylarini o'zgartirib berilgan vazifalarni bajarishga mo'ljallangan.

Mashg'ulotda foydalanilgan vositalar: A-3, A-4 formatdagi qog'oz varaqlari (guruh soniga qarab), flomaster (yoki rangli qalam).

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

- o'qituvchi tinglovchi (yoki o'quvchi)larning umumiy soniga qarab, 3-5 kishidan iborat kichik guruhlarga ajratadi (kichik guruhlar soni 4 yoki 5 ta bo'lgani maqsadga muvofiq);

- o'qituvchi tinglovchi (yoki o'quvchi)larni mashg'ulotning maqsadi va o'tkazilish tartibi bilan tanishtiradi va har bir kichik guruhga qog'ozning yuqori qismida yozuvi bo'lgan varaqlarni tarqatadi;

- o'qituvchi kichik guruh a'zolarini tarqatma materialda yozilgan asosiy fikrni faqat uchta fikr, Ya'ni uchta so'z yoki so'zlar birikmasi, yoki uchta gap bilan davom ettirishlari mumkinligini uqtiradi va buni amalga oshirish uchun aniq vaqt belgilaydi;

- guruh a'zolari birgalikda tarqatma materialda berilgan fikrni yozib davom ettiradilar;

- vazifa bajarilgach, guruh a'zolari o'rinlaridan turib soat mili yo'nalishi bo'yicha joylarini o'zgartiradilar, Ya'ni 1-guruh, 2-guruhning 2-guruh 3-guruhning, 3-guruh esa 4-guruhning (boshqa kichik guruhlar bo'lsa, shu tariqa) o'rniga o'tadilar;

- Yangi joyga kelgan guruh a'zolari shu yerda qoldirilgan tarqatma materialdagi fikrlar bilan tanishib, unga yana yangi uchtdan o'z fikrlarini yozib qo'yadilar;

- guruh a'zolari yana yuqoridagi kabi joylarini o'zgartiradilar, shu tariqa kichik guruhlar o'z joylariga qaytib kelgunlariga qadar joylarini almashtirib, tarqatma materiallarga o'z fikrlarini qo'shib boradilar;

- o'z joylariga qaytib kelgan kichik guruhlar tarqatma materialda to'plangan barcha fikrlarni diqqat bilan o'qib, ularni umumlashtirgan holda bitta yaxlit ta'rif yoki qoida xolatiga keltiradilar;

- har bir kichik guruhning mualliflik ta'riflari yoki qoidalarini guruh a'zolaridan biri taqdimot qiladi;

- o'qituvchi kichik guruhlar tomonidan berilgan ta'riflar yoki qoidalarga izoh berib, ularni baholaydi, so'ngra mashg'ulotni yakunlaydi.

Izoh: Guruhlar taqdimotidan so'ng ular bergan ta'rif yoki qoidalar asosida kichik guruhlarning har bir a'zosi yakka tartibda o'zining mualliflik ta'rifi va qoidasini keltirib chiqarib taqdimot qilishi ham mumkin.

Kichik guruhlar soni 4 ta bo'lgan maqsadga muvofiq. Bunday holda kichik guruhlar o'z joylarini faqat 3 marta almashtiradilar va bu bilan o'quv jarayonini zerikarli o'tishining oldi olinadi. Agar kichik guruhlar soni 4 tadan ko'p bo'lsa, u holda ularni ikki potokka bo'lib, kichik guruh a'zolarining almashinuvini har bir potok o'rtasida alohida, taqdimotni esa birgalikda o'tkazish mumkin.

O'qituvchi: O. Husanov

6-SINF "TARIX" FANI DARSLIGI BO'YICHA

FAN: Tarix

SINF: 6-sinf

MAVZU: "Temir asriga o'tish davrida O'rta Osiyoning rivojlanishi"

TEXNOLOGIK XARITA

MAVZU	6 - sinf "Temir asriga o'tish davrida O'rta Osiyoning rivojlanishi"
Maqsad, vazifalar	Maqsad: O'quvchilarga "Temir asriga o'tish davrida O'rta Osiyoning rivojlanishi" to'g'risida bilimlar berish Vazifalar: - o'quvchilarda mavzuga nisbatan qiziqish uyg'otish, ularda mavzu asosida bilim va ko'nikmalarni shakllantirish va kengaytirish. - mavzuga oid tarqatilgan materiallarni o'quvchilar tomonidan yakka va guruh holatida o'zlashtirib olishlari hamda suhbat munozara orqali tarqatma materiallardagi matnlar qay darajada o'zlashtirilganligini nazorat qilish, ularni bilimni baholash.
O'quv jarayonining mazmuni	"Temir asriga o'tish davrida O'rta Osiyoning rivojlanishi"
O'quv jarayonini amalga oshirish texnologiyasi	Uslub: Og'zaki bayon qilish, "Tashviqot guruhi" texnologiyasi, "Imak" (ishontirish maktabi) texnologiyasi Shakl: suhbat-munozara, amaliy mashg'ulot, kichik guruhlar va jamoada ishlash. Vosita: Tarqatma materiallar: matnlar, Usul: Tayyor yozma materiallar va chizmalar asosida. Nazorat: Og'zaki nazorat, savol-javoblar, kuzatish, o'z-o'zini nazorat qilish. Baholash: Rag'batlantirish, 5 balli tizim asosida baholash.
Kutiladigan natijalar	O'qituvchi: mavzuni qisqa vaqt ichida o'quvchilar tomonidan o'zlashtirishiga erishadi, o'quvchilar faolligini oshiradi. O'quvchilarda darsga nisbatan qiziqish uyg'otadi. Bir mashg'ulot jarayonida o'quvchilarni baholaydi. O'z oldiga qo'ygan maqsadlariga erishadi. O'quvchilar tomonidan yozma axborotni mustaqil o'rganish, uni xotirada saqlash, boshqalarga yetkazish, savol berish va savollarga javob berishga o'rgatadi. O'quvchi: Yangi bilimlarni egallaydi. Yakka holda va guruh bo'lib ishlashni o'rganadi. Nutqi rivojlanadi va eslab qolish qobiliyati kuchayadi, o'z-o'zini nazorat qilishni o'rganadi, qisqa vaqt ichida ko'p ma'lumotga ega bo'ladi va baholay oladi.
Kelgusidagi rejalar (tahlil, o'zgarishlar)	O'qituvchi: Yangi pedagogik texnologiyalarni o'zlashtirish va darsda tatbiq etish, takomillashtirish. O'z ustida ishlash, mavzuni hayotiy voqealar bilan bog'lash. Pedagogik mahoratni oshirish. O'quvchi: matn bilan mustaqil ishlashni o'rganadi. O'z fikrini ravon bayon qila oladi. Shu mavzu asosida qo'shimcha materiallar topadi, ularni o'rganadi. O'z fikri va guruh fikrini tahlil qilib bir yechimga kelish malakasini hosil qiladi.

DARSNING BLOK CHIZMASI

№	Dars bosqichlari	Vaqt
---	------------------	------

1.	Tashkiliy qism	3 minut
2.	O‘tilgan mavzuni takrorlash	7minut
3.	Yangi mavzuni guruhlar bilan ishlash	20 minut
4.	Yangi mavzuni mustahkamlash	10 minut
5.	Baholash	3 minut
6.	Uyga vazifa	2 minut

DARSNING BORISHI

I. Tashkiliy qism:

O‘quvchilar bilan salomlashish, davomatni aniqlash, uyga berilgan vazifalarni tekshirish, O‘zbekistonda va dunyoda sodir bo‘layotgan yangiliklar bilan (topshiriq berilgan o‘quvchilar orqali)tanishtirish.

Darsning jihozlanishi va darsga hozirlik ko‘rish

- 1.Darslik,
- 2.Dunyo va O‘zbekiston xaritasi
- 3.Tarqatma materiallar: (topshiriqlar yozilgan kartochkalar) (ilova qilinadi)
4. Sinf xonasini guruhlarga ishlashga tayyorlash(sinf o‘quvchilarining soniga qarab 4, 5 guruhga bo‘lib, stollarni qo‘yib chiqish)
5. Guruhlarni baholash uchun har bir o‘quvchiga quyidagicha jadval tayyorlanadi:

№	Savollar	To‘g‘ri va to‘liq javob	Qisman to‘g‘ri javob	Umuman javob yo‘q
1.	Temir buyumlardan foydalanish qachon boshlangan?			
2.	Temirdan mehnat qurollari yasashning boshlanishi jamiyatda qanday o‘zgarishlarga olib keldi?			

Izoh: to‘g‘ri va noto‘g‘ri javoblar soni belgilanadi

Dars turi: Aralash

Dars jarayonida qo‘llaniluvchi metodlar: Kichik ma‘ruza, guruhlarda ishlash metodlari.

Sinfni guruhlar bilan ishlashga tayyorlash

O‘quvchilarni guruhlarda ishlashga tayyorlash uchun dars boshlanishidan avval ularga sud tizimi va uning o‘ziga xos xususiyatlari to‘g‘risida yozilgan kartochkalar tayyorlanadi.

II. Yangi dars mazmuni (“Temir asriga o‘tish davrida O‘rta Osiyoning rivojlanishi”):

O‘qituvchi yangi mavzuni slaydlar asosida qisqacha ma‘ruza orqali tushuntiradi (slaydlar va ma‘ruza ilova qilinadi).

Ma‘ruza quyidagi tartibda tushuntiriladi:

1. «Avesto»da patriarxal oila, urug'chilik jamoasi, hududiy qo'shnicilik jamoasi va qabila qanday nomlangan?
2. Ilk davlat vujudga kelishi davridagi jamiyatni boshqarish tizimi haqida so'zlab bering.
3. Ilk davlat birlashmalarining vujudga kelishi qanday omil bilan boq'liq?

III. Yangi mavzuni mustahkamlash uchun

Texnologiyaning maqsadi: tinglovchi (yoki o'quvchi)larda muammoning mohiyatini aniqlash, o'z fikrlarini aniq va qisqa dalillar asosida bayon qilish orqali ularda ishontirish, shuningdek, targ'ibot-tashviqot qilishi va uni amalga oshirish ko'nikmalarini shakllantirish.

Mashg'ulotni o'tkazish tartibi:

Mashg'ulotning boshlanishida o'qituvchi, tinglovchi (yoki o'quvchi)lar auditoriyasi oldiga bir necha muammoli mavzularni tashlaydi, tinglovchi (yoki o'quvchi)lar bu muammoli mavzular orasidan ixtiyoriy bittasini tanlaydilar. O'rta tashlanayotgan muammoli mavzu o'quv predmeti yoki tarbiya yo'nalishida bo'lgani maqsadga muvofiq. Masalan, *“Temir asriga o'tish davrida O'rta Osiyoning rivojlanishi”* kabi mavzu tanlanishi mumkin. So'ngra o'qituvchi tinglovchi (yoki o'quvchi)larni mashg'ulotni o'tkazish tartib-qoidalari bilan tanishtiradi hamda kichik guruhlarining chiqishlari ular tomonidan tanlangan muammoli mavzulari tashviqot-targ'ibot shaklida bo'lishi kerakligini tushuntiradi va vazifalarga tayyorgarlik uchun aniq vaqt beradi. Kichik guruhlar tomonidan tayyorlangan chiqishlar har tomonlama qiziqarli, adabiy-musiqiy, ko'rgazmali, plakat, jihozlarga boy bo'lishi talab etiladi. Kichik guruhlarining chiqishlari videofilm, slayd yoki kliplar yordamida namoyish etilishi mumkin.

O'qituvchining ko'rsatmasi bilan bu jarayon yakka tartibda yoki juft bo'lib amalga oshiriladi. O'qituvchi tinglovchi (yoki o'quvchi)lar bilan birgalikda guruhlarining chiqishlari va ularning ijodiy faoliyatini muhokama qiladi, yakuniy xulosa chiqaradi va kerakli tavsiyalar beradi.

Izoh: Tashkil etilgan targ'ibot-tashviqot ijodiy guruhlarining chiqishlarini muhokama qilishda e'tiborni:

- tanlangan mavzuning dolzarbligi;
- mavzuning mazmuni va uni yoritilishi (so'z, sahna ko'rsatuvchi, rasmlar yoki video, mimika yoki pantomimika va b.);
- mavzuning yoritilishiga ijodiy yondashuv (originalligi);
- mavzuni yoritishda ishlatilgan jihozlar va yordamchi vositalar;
- mavzu mazmunining ta'sirchanligi, targ'ibot-tashviqotga boyligi;
- mavzu mazmunining tarbiyaviyligi va ta'sirchanligiga qaratish maqsadga muvofiq bo'ladi.

1-USUL: «IMAK» (ISHONTIRISH MAKTABI) TEXNOLOGIYASI

Texnologiyaning maqsadi: tinglovchi (yoki o'quvchi)larning ishontirish va boshqara olish malakasini hamda tashkilotchilik qobiliyatlarini shakllantirish, shuningdek, jamoada va turli xil vaziyatlarda o'zini tuta olishga o'rgatish.

Mashg'ulotning o'tkazish tartibi:

O'quv jarayoni boshlanishida o'qituvchi tinglovchi (yoki o'quvchi)larni mashg'ulotni o'tkazish tartib-qoidalari bilan tanishtiradi. Tinglovchi (yoki o'quvchi)dan biri mashg'ulot shartlariga binoan xonadan chiqadi. Qolgan ishtirokchilar esa o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi ziddiyatni nazarda tutuvchi muammoli holatni o'ylab chiqadilar, muhokama qiladilar va tayyorlaydilar. Boshqacha aytganda, muammoli holatni rollarga bo'lingan holda ijro etishga tayyorgarlik ko'radilar. Masalan, tinglovchilar muhim o'quv holda ijro etishga tayyorgarlik ko'rib kelganlar, ularning hammasi mashg'ulotda ishtirok etishga tayyor va qiziqish katta, lekin ta'lim muassasasi rahbariyati mashg'ulot o'rniga barcha tinglovchi (yoki o'quvchi)larni hovli, ko'chalarni, gulzor va bog'larni tozalash, tartibga keltirish yoki ta'lim muassasasida o'tkazilayotgan tadbirda zalni to'ldirish uchun borishga ko'rsatma berishi mumkin o'quvchilar o'zlarining shaxsiy tajribalaridan, o'quvchilik faoliyatidan kelib chiqib, sahnalashtirish uchun o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida ziddiyatga olib keluvchi turli holatlar, vaziyatlarni o'ylab topishlari mumkin. O'quvchilar tanlagan muammoni tayyorlagan vaqtda tashqariga chiqqan ko'ngilli qatnashchiga o'qituvchi, dekan muovini rolini o'ynashi kerakligi tushuntiriladi, uni alohida bo'ladigan muammo yoki vaziyat bilan tanishtiriladi. Tayyorgarlik uchun aniq vaqt ajratiladi. Bir ozdan so'ng, tashqariga chiqib ketgan o'quvchi auditoriyaga taklif etiladi. So'ngra o'quvchi o'ylab topgan va ular tomonidan sahnalashtirilgan ziddiyatni keltirib chiqaruvchi vaziyat ijro etiladi. O'quvchilar tomonidan tayyorlangan vaziyatni ijro etish vaqtida, ular xar xil xarakterdagi

o'quvchilar rovida bo'lib, ziddiyatni keltirib chiqarish uchun ularning qiliqlari, odatlari, so'zlari, harakatlarini ishlatadilar.

Guruh murabbiysi rolidagi tinglovchi Ushbu ijro etilayotgan sahna ko'rinishida o'zining tashkilotchilik qobiliyati, ishontira olish malakasi, holatni nazorat qilib turishi, turli vaziyatlar va sharoitlarda o'zini tuta bilishi, boshqara olishi, mazkur holatdan tarbiyaviy usullardan foydalangan holda vaziyatning, ziddiyatning ijobiy yechimiga erisha olishini namoyish eta olishi kerak. Ya'ni o'quvchilarni o'z fikriga ishontira olishi zarur, aks holda ular o'qituvchiga o'z ta'sirlarini ko'rsatishlari mumkin.

Mashg'ulotning keyingi bosqichida o'qituvchi guruh bilan birgalikda murabbiyning o'zini tutishi, o'z fikriga qay darajada ishontira olishi, uning madaniyati va harakatlaridagi ijobiy va salbiy tomonlarini muhokama qiladi, berilgan muammoli holatdan chiqishning qulay usullarini aniqlaydi, shuningdek, uchrab turishi mumkin bo'lgan muammoli holatlar va ularni yechish usullarini bashorat qiladi.

Mashg'ulotning oxirida o'quvchilar «Murabbiyning tashkilotchilik qobiliyati» mavzusida mustaqil o'qish uchun tarqatma materiallar oladilar.

Izoh: Ushbu mashg'ulotning 1-yarimida videokamera yordamida mashg'uloti to'liq, Ya'ni tinglovchi (yoki o'quvchi)larning sahnalashtirilgan muammolarini ko'rsatishlari va uni jamoa bilan yechishda murabbiyning hatti-harakatlari, qo'llagan usullarini hammasi videokassetaga tushiriladi. Mashg'ulotning 2-yarimida videokassetaga televizor orqali namoyish etiladi. Videolavhani tomosha qilish mobaynida uning mazmuni jamoaviy muhokama etilishi mumkin. Bunday tahlil har bir qatnashchining o'zini ko'ra bilishi, kerakli xulosa chiqara olishiga katta yordam beradi.

MA`RUZA

Odamlar mis va bronzadan mehnat qurollarni yasashni o'rgangan davrlardan beri oradan ko'p asrlar o'tdi. Faqat mil.avv. 1 ming yillik boshlarida temirdan mehnat qurollari yasash imkoniyati paydo bo'ldi. Bu jarayon ancha sermashaqqat ho'lgan, negaki temir misdan ko'ra ancha yuqori haroratda (1500°C) eriydi. Ammo temir mis va bronzaga nisbatan olganda qulay bo'lgan: temir ulardan qattiqroq edi. Temirdan birinchi bo'lib Kichik Osiyodagi *xetlar* miloddan avvalgi XIV—XIII asrlar), so'ngra qo'shni mintaqalardagi (Mesopotamiya, Eron, Kavkazorti) xalqlar foydalana boshlaganlar. Temir buyumlarning tarqalishi sekinlik bilan borgan. Temir kamyob va qimmatbaho metall bo'lgani uchun undan dastlab zeb-ziynat buyumlari yasashda foydalanishgan. Shunday bezaklar Misr fir'avini *Tutanxamon* maqbarasidan va Kavkazdagi *Maykop* qo'rg'oni yodgorligidan topilgan. Mehnat qurollari yasash uchun temirdan foydalanilishi, eng avvalo, dehqonchilikning rivojiga ta'sir qildi. Temirdan ishlangan uchli omochlar va boltalar paydo bo'ldi. Bu mehnat qurollari katta maydonlarda ziroatchilikning rivojlanishiga imkon yaratib berdi. O'rta Osiyodan topilgan eng qadimgi temirdan yasalgan qurollar miloddan avvalgi IX—VIII asrlarga oid bo'lsa-da, temir qurollarning ko'pchiligi miloddan avvalgi VII—VI asrlarqa oid sanaladi. Yevropadan farqli ravishda Sharqda dehqonchilik asosan sun'iy sug'orish asosida rivojlandi. Gulga burkangan bog'lar va serhosil dalalarni suv bilan ta'minlash uchun Sharqda anhorlar va ariqlarning keng tarmog'i ishlab chiqilgan. Temir qurollarning keng tarqalishi mehnat unumdorligini oshirdi. Bu esa ishlab chiqarishning yanada rivoj topgan usuliga o'tilishiga zamin yaratdi. Urug' jamoasi o'rnini *hududiy qo'shnichilik jamoasi* egallay boshladi. Qabila-urug' oqsoqollarining ta'siri tobora kuchaya borgan. Doimiy harbiy to'qnashuvlar sharoitida qabilalar ittifoqlari paydo boldi. Bu ittifoqlarga harbiy sardorlardan saylangan kishilar rahbarlik qilganlar, jamiyat esa *harbiy demokratiya* tamoyillari asosida yashay boshladi. Mil. avv. 1-mingyillik boshlarida O'rta Osiyoda aholi to'rtta guruhga bo'lindi: *kohinlar, jangchilar, dehqonlar, hunarmandlar*. O'rta Osiyoda jamiyatning negizi *nmana* deb ataluvchi katta patriarxal oila bo'lganini «Avesto»dan bilib olamiz. Bir necha «nmana»lar urug' jamoasi - «vis»ni tashkil etgan. Hududiy qo'shnichilik jamoasi esa *varzana* deb nomlangan. Bunday jamoalar qabilaga - *zantuga* birlashgan. O'z hududini himoya qilish uchun bir qancha qabilalar ittifoqqa - *daxyu*»ga uyushishgan. «Avesto»ga ko'ra jamiyatni boshqarishning quyidagi tizimi mavjud bolgan:

- ◆ oqsoqollar kengashi;
- ◆ xalq yig'ilishi;
- ◆ alohida tumanlar hukmdorlari;
- ◆ viloyatlarning hukmdorlari.

Aholining urug` va qabila bo'yicha emas, balki hududiy taomilga ko'ra guruhlariga ajratilishi mil. avv. IX- VIII asrlarda O'rta Osiyoda vujudga kelayotgan ilk davlat birlashmalarining alomati edi.

MAVZUNI MUSTAHKAMLASH UCHUN TESTLAR

1. Temirdan mehnat qurollari yasash imkoniyati qachon paydo bo'ldi?
 - A mil.avv.I ming yillik boshlarida
 - B) mil.avv.I ming yillik oxirlarida
 - C) mil.avv.I ming yillik boshlarida
 - D) mil.avv.I asrlar boshlarida
2. Temirdan birinchi bo'lib kimlar va qachon foydalanishgan?
 - A qadimgi Mesopotamiyada shumerlar, mil.avv.XIV-XIII asrlar
 - B) Kichik Osiyoda xetlar, mil.avv.XIV-XIII asrlar
 - C) Old Osiyoda xetlar, mil.avv.XII-XIII asrlar
 - D) Bobilliklar, mil.avv.XIX-XVIII asrlar
3. Temirdan Kichik Osiyolik Xetlardan so'ngra qaysi xalqlar foydalana boshladi?
 - A Misr, Eron, Kavkazorti
 - B) Turon, Eron, Mesopotamiya
 - C) Mesopotamiya, Eron, Kavkazorti
 - D) Isroil, Falastin, Finikiya
4. Misr fir'avni Tutankhamon maqbarasidan va Kavkazdagi Maykop qo'rg'oni yodgorligidan.....topilgan.
 - A dastlabki dinga munosabatlar belgilari
 - B) tosh qurollar majmuasi
 - C) Juda katta tilla buyumlar
 - D) temirdan zeb-ziynat buyumlar
5. Mehnat qurollari yasash uchun temirdan foydalanilishi, eng avvalo qaysi sohasiga ta'sir o'tkazdi?
 - A dehqonchilik texnikasi sohasiga
 - B) hunarmandchilik texnikasi sohasiga
 - C) kulolchilik texnikasi sohasiga
 - D) To'quvchilik texnikasi sohasiga
6. O'rta Osiyodan topilgan eng qadimgi temirdan yasalgan buyumlar qaysi davrga oid?
 - A mil.avv.VII-VI asrlarga oid
 - B) mil.avv.IX-VIII asrlarga oid
 - C) mil.avv. X-IX asrlarga oid
 - D) mil.avv. IX-VI asrlarga oid
7. O'rta Osiyodan topilgan eng qadimgi temirdan yasalgan buyumlarning ko'pi qaysi davrga oid?
 - A mil.avv.VII-VI asrlarga oid
 - B) mil.avv.IX-VIII asrlarga oid
 - C) mil.avv. X-IX asrlarga oid
 - D) mil.avv. IX-VI asrlarga oid
8. Yevropadan farqli o'laroq Sharqda dehqonchilik qanday rivojlandi?
 - A asosan ariq va zavurlardan sug'orish
 - B) asosan lalmikorlik zaminida
 - C) asosan sun'iy sug'orish zaminida

D) asosan sug'orish zaminida

9. Mil.avv.I ming yillik boshlarida O'rta Osiyoda aholi nechta tabaqaga bo'lingan va ularning nomlari?

A) 2 ta: kohinlar va jangchilar

B) 3 ta: kohinlar, jangchilar va dehqonlar

C) 4 ta: kohinlar, jangchilar, dehqonlar va hunarmandlar

D) 4 ta: kohinlar, amaldorlar, jangchilar va dehqonlar

10. Ijtimoiy tuzum taraqqiyotini to'g'ri tartib bilan aniqlang.

1) davlat; 2) urug'; 3) qabilalar ittifoqi; 4) qabila; 5) hududiy qo'shnicilik jamoasi; 6) urug'jamoasi;

A) 2,3,4,5,6,1

B) 2,5,6,3,1,4

C) 2,6,5,4,3,1

D) 1,2,3,4,5,6

11. Ilk davlatchilikka o'tish davrida qabilaga harbiy sardorlar boshchilik qilgan boshqaruv shakli-.....deyiladi.

A) Qabilalar ittifoqi

B) Urug' jamoasi

C) Harbiy demokratiya

D) Hududiy qo'shnicilik jamoasi

12. Avestodan ma'lumki O'rta Osiyoda jamiyatning negizi katta patriarxal oilani nima deyishgan?

A) Nmana

B) Vis

C) Varzana

D) Zantu

13. Avestodan ma'lumki O'rta Osiyoda urug' jamoasini nima deyishgan?

A) Nmana

B) Vis

C) Varzana

D) Zantu

14. Avestodan ma'lumki O'rta Osiyoda hududiy qo'shnicilik jamoasini nima deyishgan?

A) Nmana

B) Vis

C) Varzana

D) Zantu

15. Avestodan ma'lumki O'rta Osiyoda qabilani nima deyishgan?

A) Nmana

C) Varzana

B) Vis

D) Zantu

16. Avestodan ma'lumki O'rta Osiyoda qabilalar ittifoqini nima deyishgan?

A) Nmana

B) Dahya

C) Varzana

D) Zantu

17. "Avesto"ga ko'ra, jamiyatni idora qilishning qanday tizimi mavjud edi va ularning tartibini aniqlang?

1) xalq yig'ilishi; 2) oqsoqollar kengashi; 3) viloyatlarning hukmdorlari; 4) alohida tumanlar;

A) 1,2,3,4

B) 2,3,4,1

C) 2,1,4,3

D) 3,4,2,1